XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-019-3-49-K/24 Zarbdor tumani

Zarbdor tumanining 2025 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024 yil 26 dekabrdagi 01-20-08-02-39/192-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Zarbdor Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari 2024 yil 27 dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Zarbdor tumani mahalliy budjetining 2025 yilgi daromadlari **76 051 892,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **84 859 483,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **8 807 591,0 ming.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Zarbdor tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **431 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2025 yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetining 2025 yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek tuman budjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **1 127 018,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini

amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Q.Nurmatov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (J.Nishonov), tuman soliq inspeksiyasi (E.Erkaboyev) bilan birgalikda 2025 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu Qaror 2025-yil 1-yanvar kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Qodirov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Q.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi RUZIYEV ZAFAR SHAROPOVICH

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-49-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Zarbdor tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
JAMI		**96 892 892**	**76 051 892**
1	Foyda solig‘i	1 168 000	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	4 604 000	4 604 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	38 566 000	38 566 000
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	841 000	841 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	8 000 000	0
6	Aksiz solig‘i jami	2 706 000	2 706 000
6,1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*	0	0
6,2	*pivo*	0	0
6,3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*2 706 000*	*2 706 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 511 000	2 511 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	3 849 892	3 849 892
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 946 000	9 946 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 131 000	7 131 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0	0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*9 549 000*	5 789 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	46 000	46 000
14	Davlat boji	3 220 000	0
15	Yig‘imlar	849 000	0
16	Jarimalar	3 844 000	0
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	62 000	62 000

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-49-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

foiz hisobida

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
2	**Foyda solig‘i*****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
3	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Pivo**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
5	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
6	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
7	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%

		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
8	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
9	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
10	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
11	**Aylanmadan soliq**	Tuman budjetiga		100%
		Viloyat budjetiga		0%
12	**Davlat boji**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
13	**Jarima**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
14	**Yig‘imlar**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
15	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%
16	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat byudjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-49-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Zarbdor tuman mahalliy byudjetidan 2025 yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
	Xarajatlar miqdori, jami	**84 859 483,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	21 276 974,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 925 984,0
2	Tibbiyot birlashmasi	0,0
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0,0*
3	Madaniyat bo‘limi	3 098 179,0
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	2 939 259,0
5	Sport bo‘limi	6 025 763,0
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 627 301,0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 302 656,0
8	Irrigatsiya bo‘limi	996 558,0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 426 438,0
10	Davlat soliq inspekciyasi	0,0
11	Hokimyat	27 540 508,0
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*69 365,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*23 100,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*18 610 578,0*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 173 882,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 127 018,0*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	612 622,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*49 432,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*563 190,0*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	16 013 225,0
14	Boshqa tashkilotlar	

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-49-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Zarbdor tuman mahalliy budjetining 2025 yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy budjetlarning jami daromadlari**	**Shundan,**		**Mahalliy budjet xarajatlari**
		Mahalliy budjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
Zarbdor tumani	84 859 483,0	76 051 892,0	8 807 591,0	84 859 483,0

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-49-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Zarbdor tuman budjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Zarbdor tuman	**431 000,0**

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-49-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (ming.so‘mda)
1	Adirobod MFY	0.85	42 075,0
2	Andijon MFY	0.85	42 075,0
3	Dustlik MFY	0.90	44 550,0
4	Yoshlik MFY	0.82	40 590,0
5	Lalmikor MFY	0.90	44 550,0
6	Mustakillik MFY	0.90	44 550,0
7	Navbaxor MFY	0.82	40 590,0
8	Navoiy MFY	0.90	44 550,0
9	Navro‘z MFY	0.90	44 550,0
10	Nurafshon MFY	0.82	40 590,0
11	Nurobod MFY	0.90	44 550,0
12	Oybek MFY	0.90	44 550,0
13	Oqar MFY	0.82	40 590,0
14	Oqbuloq MFY	0.90	44 550,0
15	Ravot MFY	0.90	44 550,0
16	Taraqqiyot MFY	0.90	44 550,0
17	Tinchlik MFY	0.90	44 550,0
18	Toza urug‘ MFY	0.90	44 550,0
19	Toshkesgan MFY	0.85	42 075,0
20	Sharq Yulduzi MFY	0.90	44 550,0
21	Shodlik MFY	0.90	44 550,0
22	Yangi xayot MFY	0.90	44 550,0
23	Yangikent MFY	0.82	40 590,0
24	Yangiobod MFY	0.90	44 550,0

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-49-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Adirobod MFY	0.79	291,980
2	Andijon MFY	0.77	284,590
3	Dustlik MFY	0.79	291,980
4	Yoshlik MFY	0.77	284,590
5	Lalmikor MFY	0.79	291,980
6	Mustakillik MFY	0.81	299,380
7	Navbaxor MFY	0.77	284,590
8	Navoiy MFY	0.81	299,380
9	Navro‘z MFY	0.79	291,980
10	Nurafshon MFY	0.76	280,900
11	Nurobod MFY	0.81	299,380
12	Oybek MFY	0.81	299,380
13	Oqar MFY	0.77	284,590
14	Oqbuloq MFY	0.81	299,380
15	Ravot MFY	0.81	299,380
16	Taraqqiyot MFY	0.77	284,590
17	Tinchlik MFY	0.81	299,380
18	Toza urug‘ MFY	0.81	299,380
19	Toshkesgan MFY	0.77	284,590
20	Sharq Yulduzi MFY	0.81	299,380
21	Shodlik MFY	0.77	284,590
22	Yangi xayot MFY	0.81	299,380
23	Yangikent MFY	0.77	284,590
24	Yangiobod MFY	0.81	299,380